Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 1454-3966-841a-3a9a-b3f6-9739-7519
Ҳужжат яратилинган сана: 2024-07-02
Ариза рақами: 133282401

Ҳужжат берилган: "DREAM HOUSE DESIGN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 304923446

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шахар Қурилиш бош бошқармаси
Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи органининг
2024-07-02 даги 133282401 -сонли

## ХУЛОСАСИ

| т/р | Тақдим этиладиган маълумотлар | |
|---|---|---|
| 1. | Ариза рақами: | 133282401 |
| 2. | Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи: | "DREAM HOUSE DESIGN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT |
| 3. | Лойиҳа-смета хужжатларининг буюртмачиси номи: | “SPARTAK ZAMIN GROUP” МЧЖ |
| 4. | Объект манзили: | Янгихаёт тумани, Спутник 7-мавзеси, 5-уй |
| 5. | Лойиҳа-смета хужжатларининг номланиши: | Тошкент шахар. Янгихаёт тумани. Ал-фаргоний мфй. спутник 7 мавзеси. 5-уй манзилида "spartak zamin group" мчж га тегишли худудида "пастки қаватлари савдо маиший хизмат бўлган кўп квартирали турар-жой бинолари" учун эскиз таклиф лойихаси |
| 6. | Архитектура-режалаштириш топшириғининг реквизитлари: | 1726-1726292-94294 |

### Лойихани кўриб чиқиш натижаси

| т/р | Категория | Натижа | Изох |
|---|---|---|---|
| 1. | Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги: | Ижобий | |
| 2. | Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги: | Ижобий | |
| 3. | Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги: | Ижобий | |
| 4. | Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги: | Ижобий | |
| 5. | Қурилиш чизиғига амал қилинганлиги: | Ижобий | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6. | Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги: | Ижобий | |
| 7. | Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги: | Ижобий | |
| 8. | Лойиҳада имконияти чекланган шаҳсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги: | Ижобий | |
| 9. | Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги: | Ижобий | |
| 10. | Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги: | Ижобий | |
| 11. | АРТ талабларидан четга чиқиш: | Ижобий | |

**Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:**

**Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати:** Келишилган;
**Қўшимча маълумотлар:** Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 20 apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona maʼmuriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyixa-smeta xujjatlarini kelishish boʻyicha davlat xizmatlari koʻrsatishning maʼmuriy reglamenti”ga asosan loyixa-smeta xujjatlarini kelishish bo`yicha, Yangihayot tuman Favqulodda vaziyatlar bo`limining № 23/37-1097-sonli X U L O S A S I 26.06.2023 yil Toshkent sh. Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar boʻlimi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 20 apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona maʼmuriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyixa-smeta xujjatlarini kelishish boʻyicha davlat xizmatlari koʻrsatishning maʼmuriy reglamenti”ga asosan, “my.gov.uz” YaIDXPdan 2024 yil 25 iyun kunidagi №133282401-unikal raqamli murojaat kelib tushgan bo`lib, unda, Yangihayot tumani Al-Fargʻoniy MFY Sputnik-7 mavzesi 5-uy manzilida joylashgan “SPARTAK ZAMIN GROUP” MChJga qarashli yer maydonida “3 ta 16 qavatli turar joy binolari va pastki qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari” qurilishi boʻyicha “DREAM HOUSE DESIGN” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan dastlabki “eskiz” loyixasi oʻrganib chiqib xulosa berish soʻralgan. Murojaat xizmat vakolat doirasida oʻrganib chiqildi. O`rganish natijasiga koʻra, loyixaga shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlarga asosan yuqoridagi obʼyekt qurilish ishlarini, Oʻzbekiston Respublikasi hududida xarakatda boʻlgan ShNK 2.01.02-04 “Bino va inshoatlarni yongʻin xavfsizligi” talablari va ShNQ 2.07.01-03* (Shaharsozlik) meʼyoriy xujjatining 1-majburiy ilova (yongʻinga qarshi talablar), 15-band, hamda ShNQ 2.08.02-09* (Jamoat bino va inshootlari) normativ hujjatlar talablariga amal qilgan holda, yong`inga qarshi tadbirlarni bajarish sharti bilan eʼtiroz bildirilmaydi. Oʻzbekiston Respublikasi hududida xarakatda boʻlgan barcha normativ hujjatlarda koʻrsatib oʻtilgan talablaridan biri bajarilmagan taqdirda ushbu xulosa oʻz kuchini yoʻqotgan xisoblanadi. Yangihayot tuman FVB boshligʻi S.T.Tursunov;

**Ҳудудий санитария-эпидемиология хизмати:** Келишилган;
**Қўшимча маълумотлар:** Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona maʼmuriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish boʻyicha davlat xizmatlari koʻrsatishning maʼmuriy reglamenti”ga asosan Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi Toshkent shahar Yangihayot tuman boʻlimining loyiha-smeta xujjatlarini KELISHISH BOʻYICHA XULOSASI Qayta-108584427. Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʼmitasi Toshkent shahar Yangihayot tuman boʼlimi, “my.gov.uz” YaIDXM dan 2024 yil 25 iyun kuni kelib tushgan 133282401-sonli arizaga asosan “DREAM HOUSE DESIGN” MCHJ loyiha tashkiloti tomonidan Yangihayot tumani, Al-Farg'oniy MFY, Sputnik-7 mavzesi, 5-uyda joylashgan "Spartak zamin group" MCHJ ga tegishli hududda "pastki qavatlari savdo va maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p kvartirali turar-joy binolari" qurilishi yuzasidan

ishlab chiqilgan dastlabki eskiz loyihasi oʻrganib chiqilib, quyidagi sanitariya epidemiologiya talablarni bajarish sharti bilan binoni joylashtirilishi boʻyicha xujjatlarini rasmiylashtirishga e’tiroz bildirmaydi ya’ni, loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shart, obyektni kadastr hujjatlarida koʻrsatilgan chegarasidan chiqmasdan, qizil chizigʻiga va qurilish chiziqlariga amal qilgan holda loyiha ishlarini olib borilishi ta’minlansin. SanQ va M 0022-22, SanQM 0350-17, SanQM 0339-16, SanQM 0331-16, SanQM 0008-20, SanQM 0324-16, talablariga qat’iy amal qilinishi lozim, ushbu qonuniy hujjatlar talablari buzilgan taqdirda ushbu xulosa oʻz kuchini yoʻqotadi. Javobgarlik loyihachi tashkilot yoki quruvchi zimmasiga yuklatiladi. SEO va JSQ Toshkent shahar Yangihayot tuman boʻlimi boshligʻi B.U.Oʻktamov Ijrochi: Sirojiddinov N.B.;

**Бош архитектор:** O`zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi;







**Маъқулланди:**

**1. Хулоса берувчиларнинг хулосасида кўрсатилган талабларни бажариш, мухандислик тармоғидан химоя масофаси сақлаш, дарахтларни сақлаб қолиш шарти билан лойиҳа ишларини давом эттириш.**
**2. Лойиҳалаш жараёнида АРТда кўрсатилган талабларни бажариш шарти белгиланди.**
**3. Лойиҳалаш жараёнида ЗВОС лойиҳаси олиш белгиланди.**

**Қуйидаги талаблар: Лойиҳада келишиб берилган барча бино ва иншоотларда тунги ёритиш тизимини ўрнатиш талаби белгилансин ва ушбу талаб лойихада кўрсатиб ўтилсин.**

**Кенгаш аъзолари томонидан юқорида кўриб чиқилган лойихалар юзасидан ШНҚ асосида хар бир берилган талаб ва шартлар тегишлилиги бўйича назоратга олиш ва ушбу ишлар амалга оширилмагунга қадар Тошкент шахар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги сохасида назорат қилиш инспекцияси бино фойдаланишга қабул қилинмаслиги назоратга олсин.**

**"Худудий электр тармоқлари" АЖнинг Тошкент шахар филиали, "Hudud gaz poytaxt" газ таъминоти филиали, Тошкент шахар "Сув таъминоти" МЧЖ директорлари хар лойихани аниқ хисоб китобларга таянган холда юкламалар яратиш шартларини аниқ белгилаб берсин. Белгиланган меъёрлардан ошиқча юкламаларда ишлаётган худудларда коммуникация тармоқларига уланишга йўл қўймасин.**

**Экология, атроф-мухитни мухофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг Тошкент шахар бошқармаси хар бир худудни ўрганиб, юқоридаги хар бир лойихалар учун иқлим шароитига мос бўлган айланаси 18 см.дан, баланлиги 3 метрдан кам бўлмаган дарахтлар, 6 литрдан кам бўлмаган буталар экилишини назорат қилсин. Лойиҳалаш жараёнида атроф муҳитга таъсир кўрсатилиши тўғрисидаги баёнот лойиҳаси (ЗВОС) олиш шарти белгилансин.**

**Лойихада муҳандислик тармоқларининг юкламалари инобатга олган холда техник шартлар олиш ва ушбу техник шартлар талабларини бажариш хамда уларга туташ худудларнинг кўкаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва навнихолларни экиш) майдонлари лойиха учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонинг 25 фоизидан кам бўлишига йўл қўйилмаслик талаби белгилансин.**

**Лойиҳа ташкилотлари томонидан лойиҳалаштирилаётган биноларда углеводородлар ва электр энергияси истеъмолини камайтириш мақсадида, энергия тежамкор қурилиш материалларидан фойдаланиш, иссиқ сув таъминоти, ёритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотоэлектрик тизимлар, гелиоколлекторлар ва иссиқлик насосларини ўрнатиш, мухандислик тармоқларини хам инобатга олинсин.**

**Лойиҳаларни кўриб чиқиш натижаси бўйича мутасадди бошқармалар ўз йўналиши бўйича маъсул эканлиги белгилаб қўйилсин.**

**Мазкур ҳудудда лойиҳа асосида қурилиш ишларини олиб бориш учун ён қўшниларни розилигини олиш тавсия этилади.**

**Ушбу хулоса қурилиш ишларини бошлашга асос бўлмаслигини, шунингдек, хулоса талаблари бажарилмаган тақдирда қонунчиликда белгиланган тартибда хулосани бекор қилинишига сабаб бўлиши мумкинлигини ва бундай ҳолатда жавобгарлик лойиҳа ташкилоти зиммасига юклатилишини маълум қиламиз.**

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

7530